

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) “Milliy hisoblar tizimi – 2008” xalqaro standarti va Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining “Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo'yicha qo'llanma”si, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi mutaxassislari tomonidan kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini statistik baholash va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini hisoblashda foydalanish uchun mo'ljallangan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPM modelining qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

kuzatilmaydigan iqtisodiyot – doimiy statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistika ko'rsatkichlarida aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari;

norasmiy iqtisodiyot – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat;

yashirin iqtisodiyot – qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortilmaslik va qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat;

noqonuniy iqtisodiyot – qonun bilan ta'qiqlangan yoki vakolatga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilganda qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka olib keladigan iqtisodiy faoliyat turlari.

2. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash Statistika dasturida ko'zda tutilgan muddatlarda, davriylikda va kesimlarda amalga oshiriladi.

2-bob. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash asoslari

3. Kuzatilmaydigan iqtisodiyot norasmiy, yashirin va noqonuniy faoliyat turlari bo'yicha guruhlariga ajratilgan holda baholanadi.

3.1. Norasmiy iqtisodiy faoliyat ro'yxatdan o'tmagan holda turli xil tadbirkorlik va ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o'z ichiga oladi.

Jismoniy shaxslarning norasmiy faoliyati ishlab chiqarish maqsadidan kelib chiqqan holda ikki guruhga ajratilgan holda baholanadi:

jismoniy shaxslarning o'zini ish va daromad bilan ta'minlash uchun sotish

maqsadida (bozor uchun) tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyati;

uy xo'jaliklarining o'z ehtiyojlari (yakuniy foydalanishi) uchun ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyati.

Jismoniy shaxslarning sotish maqsadida (bozor uchun) ishlab chiqarish faoliyati quyi darajada tashkil etiladi, kichik hajmlarga ega bo'ladi va shu sababli ularda mehnat va kapital xarajatlarini farqlash imkonini mavjud emas. Mehnat munosabatlari esa agar ular mavjud bo'lsa, shartnomalar va rasmiy kafolatlariga emas, balki og'zaki kelishuvlar, qarindoshlik munosabatlari, ish vaqti va tartibining belgilanmasligiga asoslanadi.

Uy xo'jaliklarining o'z ehtiyojlari (yakuniy foydalanishi) uchun ishlab chiqarishi qishloq xo'jaligi (dehqonchilik va chorvachilik) va qayta ishlash sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish, o'z uy-joylarini qurish ishlari, shuningdek, o'z uyida yashash bo'yicha shartli xizmatlar (shartli renta)ni o'z ichiga oladi.

4. Yashirin iqtisodiy faoliyat davlat boshqaruvi organlarida ro'yxatdan o'tgan va hisobotlarida faoliyatini (daromadlarini va boshqa ko'rsatkichlarini) to'liq yoki qisman yashirib ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar (yuridik shaxslar) faoliyatini, shuningdek, davlat boshqaruvi organlarida umuman ro'yxatdan o'tmagan hamda hisobotlar taqdim etmaydigan, ishlab chiqarish jarayonlari nisbatan yuqori darajada tashkil etilgan va yirikroq ko'lamlarda faoliyat yuritadigan korxonalar (jismoniy shaxslar) faoliyatini o'z ichiga oladi.

5. Noqonuniy iqtisodiy faoliyat qonun bilan ta'qiqlangan tovarlar (xizmatlar)ni ishlab chiqarish, sotish va saqlash hamda qonun bilan ruxsat etilgan, ammo tegishli ruxsatnomasi bo'lmagan ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshirilganda noqonuniy bo'ladigan faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ularga qurol-yarog' savdosi, giyohvand moddalar yetishtirish va sotish, fohishalik, kontrabanda, maxsus ruxsatnomaga ega bo'lmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati (alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish, tibbiy xizmatlar ko'rsatish, brakonyerlik) va boshqalar kiritiladi.

Odatda, noqonuniy faoliyat ko'lamining iqtisodiyotdagi talab va taklif darajasiga, shuningdek, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – iqtisodiy o'sish, bandlik, inflyatsiyaga ta'siri ahamiyatsiz darajada kichik bo'ladi. Shu sababli, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirishda noqonuniy iqtisodiy faoliyatni qamrab olish zarurati yo'q deb hisoblanadi va mazkur Uslubiy nizomda O'zbekiston Respublikasi bo'yicha noqonuniy iqtisodiy faoliyatni statistik baholash ko'zda tutilmaydi.

6. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bevosita va bilvosita usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bevosita usullar tanlanma kuzatuvlar o'tkazish (uy xo'jaliklari kuzatuvlari, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha jismoniy shaxslar kuzatuvlari, korxonalar faoliyatining maxsus kuzatuvlari, savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarini kuzatish va boshqalar) yoki ma'muriy ma'lumotlardan (soliq va moliyaviy tekshiruvlar natijalari, ro'yxatga olish va litsenziyalar berish bo'yicha ma'lumotlar, ma'muriy registrlar va boshqalar) foydalangan holda baholashga asoslanadi.

Bilvosita usullar baholanayotgan tarmoq faoliyatini ifodalovchi bilvosita ma'lumotlar asosida hisob-kitoblarni amalga oshirish va turli iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishga asoslanadi. Bilvosita usullarga mehnat sarfi bo'yicha bandlik ko'rsatkichlari usuli, naqd pul massasi asosida monetar usul, ishlab chiqarish omillari bo'yicha resurslar asosidagi usul, tovarlarni ishlab chiqarilishidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan harakati asosida tovarlar oqimi usuli va boshqalarni kiritish mumkin.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmini aniqlashda iqtisodiyot tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari, mavjud axborotlar manbalari va boshqa ta'sir ko'rsatuvchi omillardan kelib chiqib, ma'lum bir usul tanlanadi, shu bilan birga, bevosita va bilvosita usullardan birgalikda keng foydalanish ham mumkin.

3-bob. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha norasmiy iqtisodiyotni baholash

7. Norasmiy iqtisodiyot hajmini hisoblashda axborotlar manbai bo'lib, tarmoqlar statistikasida shakllantiriladigan norasmiy sektorda ishlab chiqarish bo'yicha jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlari va uy xo'jaliklari kuzatuvlarining ma'lumotlari hisoblanadi. Zarur hollarda, tanlanma qamrovini oshirgan holda qo'shimcha maxsus kuzatuvlar ham o'tkaziladi.

8. **Qishloq xo'jaligi** bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni baholashda dehqon xo'jaliklaridagi:

qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlari;

chorva mollari va parrandalar bosh soni;

natura ko'rinishida dehqonchilik (donli ekinlar, sabzavotlar, kartoshka, poliz, mevalar, rezavorlar va boshqalar), chorvachilik (go'sht, sut, tuxum, asal va boshqalar), baliq va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini aniqlash uchun maxsus tanlanma kuzatuvlar o'tkaziladi.

Bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'liq yoki qisman sotish uchun, shuningdek, o'z iste'moli uchun ishlab chiqaruvchi dehqon xo'jaliklari qamrab olinadi.

Tanlanma to'plamni shakllantirish uchun asos sifatida faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklarining sonidan (bosh to'plam) foydalaniladi.

Dehqon xo'jaliklari bo'yicha bosh va tanlanma to'plamni shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha faoliyat yuritayotgan barcha dehqon xo'jaliklari soni ko'rsatilgan holda hududlar bo'yicha ro'yxati (bosh to'plam) shakllantiriladi.

Dehqon xo'jaliklari sonini aniqlashda 4-dx shakli (choraklik) "Dehqon xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot" statistika hisoboti ma'lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Hududlarda dehqon xo'jaliklari sonining har xilligini hisobga olib, tanlanma to'plamni shakllantirishda tanlash foizi tegishli hududdagi ularning sonidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bunda barcha hududlarda kuzatuvga tushgan dehqon xo'jaliklari sonining o'zaro yaqinligi ta'minlanadi.

Masalan, hududda jami 8544 birlik dehqon xo'jaliklari (bosh to'plam) mavjud va mazkur hududda kuzatuv o'tkazish uchun tanlash foizi 1,1 foizni tashkil qiladi (1-ilova). Shunday qilib, kuzatuv o'tkazish uchun hudud (tuman, shahar) bo'yicha 94 ta ($8544 / 100 \times 1,1 = 94$) xo'jalik (tanlanma to'plam) tanlab olinadi.

Ikkinchi bosqichda birinchi bosqichda aniqlangan xo'jaliklar sonidan kelib chiqqan holda hudud (tuman, shahar) bo'yicha dehqon xo'jaliklari tanlab olinadi va ularning ro'yxati tuziladi.

To'liqroq qamrovni va ma'lumotlar reprezentativligini ta'minlash maqsadida kuzatiladigan dehqon xo'jaliklari bir nechta mahalla fuqarolar yig'inlaridan tanlab olinadi.

So'rovlar, kuzatuvlar uchun tanlab olingan barcha dehqon xo'jaliklarini to'liq qamrab olgan holda, shuningdek, ularning yuridik shaxs tashkil etgan yoki etmaganligidan qat'i nazar barcha hududlar bo'yicha o'tkaziladi.

Tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish har bir hudud va so'rovnomaning har bir ko'rsatkichi bo'yicha tanlov foizidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Masalan, hudud bo'yicha dehqon xo'jaliklarining umumiy soni 8544 birlikni tashkil qiladi, shundan kuzatuvlar uchun 1,1 foiz yoki 94 ta xo'jalik tanlab olingan.

Kuzatuv o'tkazilgan 94 ta xo'jalik bo'yicha umumiy 60 sentner don ekinlari hosili olingan (q).

Don ekinlari yalpi hosili bo'yicha tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$Q_j = \frac{q * 100 \%}{w},$$

bu yerda:

Q_j – bosh to'plamdagi don ekinlari yalpi hosili, sentner;

q – tanlanma to'plamdagi don ekinlari hosili, sentner;

w – tanlanma to'plam qamrovi (bosh to'plamdagi ulushi), foiz;

j – kuzatuv o'tkazilayotgan hudud (tuman, shahar).

Demak, kuzatuv natijalariga ko'ra, hudud bo'yicha bosh to'plamdagi don ekinlarining yalpi hosili 5454,5 sentnerni tashkil etadi.

$$Q_j = \frac{60 * 100 \%}{1,1 \%} = 5454,5 \text{ sentner.}$$

Shu kabi so'rovnomaning boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha kuzatuv ma'lumotlari bosh to'plamga tarqatiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari kesimida natura ko'rinishidagi ma'lumotlar narxlar statistikasi ma'lumotlari asosida qiymat ko'rinishga o'tkaziladi.

9. Sanoat tarmog'i bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyat uy xo'jaliklarining sotish yoki o'z iste'moli uchun sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishini o'z ichiga oladi.

Uy xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi uy xo'jaliklari budjeti kuzatuvlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Bu ma'lumotlar natura ko'rinishidagi qayta ishlashga berilgan, shuningdek, qayta ishlashdan olingan quyidagi mahsulotlarni (mavsumiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda) o'z ichiga oladi:

kolbasa mahsulotlari;
 mol yog'i;
 pishloq, brinza, sariyog';
 o'simlik yog'i;
 go'sht, go'shtli yarim tayyor mahsulotlar va konservalar;
 sabzavot konservalari, meva konservalari;
 quritilgan sabzavotlar, quritilgan mevalar;
 un, non va non mahsulotlari;
 qandolat mahsulotlari;
 makaron mahsulotlari;
 tuzlangan, quritilgan baliq;
 murabbo;
 vino;
 to'qimachilik mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal;
 milliy hunarmandchilik buyumlari;
 qurilish materiallari va boshqalar.

Qayta ishlashga yuborilgan va qayta ishlashdan olingan mahsulot ushbu jarayonlar amalga oshirilgan vaqtdagi bozor narxlarida baholanadi.

Uy xo'jaliklarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishi hajmi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{ux} = \sum_{i=1}^m \frac{V_i}{K_{kux}} \times K_{ux} \times N_i ,$$

bu yerda:

V_{ux} – uy xo'jaliklarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi;

V_i – kuzatilgan uy xo'jaliklarida i - tovarni qayta ishlashdan olingan mahsulot (natura ko'rinishida);

K_{kux} – kuzatilgan uy xo‘jaliklari soni;

K_{ux} – hududdagi barcha uy xo‘jaliklari soni;

$N_i - i$ - mahsulot birligi uchun xarid narxi (bozor narxlarida baholanadi).

10. Qurilish tarmog‘i bo‘yicha norasmiy iqtisodiy faoliyat jismoniy shaxslar tomonidan pudrat tashkilotlarini jalb etmagan holda turar-joy va noturar-joylar qurilishi hamda ta‘mirlanishi bo‘yicha bajarilgan ishlarni o‘z ichiga oladi.

Qurilish ishlari bo‘yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni statistik baholashda quyidagi ma‘lumotlar manbalaridan foydalaniladi:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining viloyat, shahar va tuman bo‘linmalari tomonidan taqdim etiladigan 1 qurilish (jismoniy) shakli (yillik) “Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda qurilgan turar joylarni va noturar binolarni foydalanishga topshirish to‘g‘risida hisobot”i ma‘lumotlari (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi);

1 TJ so‘rovnomasi (yillik) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joyni tanlama kuzatuv so‘rovnomasi ma‘lumotlari (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi);

yakka tartibdagi uy-joylarni xo‘jalik usuli bilan ta‘mirlash hajmini statistik baholash uchun uy xo‘jaliklari kuzatuvlari ma‘lumotlari;

jismoniy shaxslar egaligidagi qurilish texnikalari vositasida bajarilgan qurilish ishlari to‘g‘risidagi statistika kuzatuvlari ma‘lumotlari.

Qurilish ishlari bo‘yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni statistik baholash besh bosqichda amalga oshiriladi.

Birinch bosqich. Jismoniy shaxslar tomonidan noturar joy qurilish ishlari hajmi (V_{xq}) 1 qurilish (jismoniy) statistika hisobotidagi yangi qurilgan noturar joylarni ishga tushirilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida aniqlanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o‘zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Ikkinchi bosqich. Jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan yakka tartibdagi turar joylarning umumiy qiymati ham 1 qurilish (jismoniy) statistika hisoboti ma‘lumotlari asosida shakllantiriladi. Ishga tushirilgan yakka tartibdagi turar joylarning qiymati (V_{ytq}) umumiy maydonni 1 TJ (yillik) so‘rovnomasidan kelib chiqqan 1 kv.m maydonning o‘rtacha qiymatiga ko‘paytirish orqali aniqlanadi.

$$V_{ytq} = S \times P ,$$

bu yerda:

V_{ytq} – ishga tushirilgan yakka tartibdagi turar joylarning umumiy qiymati (yakka tartibdagi qurilish ishlari hajmi, ming so‘m);

S – jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan turar joylarning umumiy maydoni;

P – jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan 1 kv.m turar joyning qiymati.

Uchinchi bosqich. Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda turar joylarni ta'mirlash ishlari hajmi (V_{ytt}) uy xo'jaliklarining qurilish materiallariga va ta'mirlash ishlariga xarajatlari yig'indisi orqali aniqlanadi:

$$V_{ytt} = Ye + T,$$

bu yerda:

V_{ytt} – jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda turar joylarni ta'mirlash ishlari qiymati (ming so'm);

E – uy xo'jaliklarining qurilish materiallariga xarajatlari;

T – uy xo'jaliklarining ta'mirlash ishlari uchun mehnat resurslariga xarajatlari.

Uy xo'jaliklarining qurilish materiallariga xarajatlari (Ye) “Kunlik xarajatlarni hisobga olish kundaligi” ma'lumotlari asosida bitta uy xo'jaligining ta'mirlash maqsadida qurilish materiallari sotib olishga qilgan o'rtacha xarajatini jami uy xo'jaliklari soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Uy xo'jaliklarining ta'mirlash ishlari uchun mehnat resurslariga xarajatlari (T) qurilish faoliyatini amalga oshiruvchi kichik tadbirkorlik subyektlarining mehnat resurslariga o'rtacha xarajatlari asosida aniqlanadi.

Mazkur ma'lumotlar qurilish faoliyatini amalga oshirgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 1 korxona shakli (yillik) “Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot” asosida shakllantiriladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Dastlab kichik tadbirkorlik subyektlari bo'yicha kunlik o'rtacha ish haqi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T = \frac{F}{L \times n \times 22},$$

bu yerda:

T – bir ish kuni qiymati;

F – ro'yxatdagi va ro'yxatdan tashqari xodimlar ish haqi fondi;

L – o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni;

n – hisobot davridagi oylar soni: I chorak uchun $n = 3$; yarim yillik uchun $n = 6$; 9 oylik uchun $n = 9$; yillik uchun $n = 12$;

22 – 1 oydagi ish kunlarining o'rtacha soni.

Bir ish kuni qiymatini ta'mirlash uchun talab etiladigan o'rtacha ish kunlariga ko'paytirish orqali uy xo'jaliklari bo'yicha ta'mirlash ishlari uchun mehnat resurslariga xarajatlar qiymati hisoblanadi.

To'rtinchi bosqich. Kuzatuv asosida aniqlangan jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy qurilish texnikalari vositasida amalga oshirilgan qurilish ishlari qiymati, shu jumladan, har bir texnika turi bo'yicha bir dona texnika uchun 1 oylik o'rtacha tushum aniqlanadi:

$$R_t = D_t \times E_t,$$

bu yerda:

R_t – bir dona t -texnikasi (buldozer, avtokran, ekskavator) bo'yicha 1 oylik o'rtacha tushum (ming so'm);

D_t – t -texnikasi (buldozer, avtokran, ekskavator) bo'yicha 1 kunlik o'rtacha tushum;

E_t – t -texnikasi (buldozer, avtokran, ekskavator) bo'yicha 1 oyda ishlangan kunlar o'rtacha soni.

Bir dona t -texnikasi (buldozer, avtokran, ekskavator) bo'yicha 1 oylik o'rtacha tushumni texnikalar soniga ko'paytirish orqali, hududda jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish hajmi aniqlanadi:

$$P_t = R_t \times Q_t ,$$

bu yerda:

P_t – jismoniy shaxslar tomonidan t -texnikasi vositasida bajarilgan qurilish hajmi (ming so'm);

R_t – bir dona t -texnikasi (buldozer, avtokran, ekskavator) bo'yicha 1 oylik o'rtacha tushum;

Q_t – hududda mavjud t -texnikalar (buldozer, avtokran, ekskavator) soni.

Masalan, bir dona ekskavator uchun kuzatuv asosida aniqlangan 1 kunlik o'rtacha tushum 300 ming so'm, 1 oyda ishlangan kunlar o'rtacha soni 18 kun bo'lsa, jismoniy shaxslarga qarashli jami ekskavatorlar soni 86 taga tengligidan kelib chiqib, jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish hajmi quyidagicha hisoblanadi:

$$R_t = 300 \times 18 = 5400 \text{ ming so'm,}$$

$$P_t = 5400 \times 86 = 464\,400 \text{ ming so'm.}$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko'ra, bir dona ekskavator uchun 1 oylik o'rtacha tushum 5400 ming so'm, ekskavator yordamida jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish hajmi 464 400 ming so'mga teng.

Beshinchi bosqich. Jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmi yuqorida keltirib o'tilgan turar joy va noturar joy binolari qurilishi, yakka tartibda turar joylarni ta'mirlash va jismoniy shaxslar egaligidagi qurilish texnikalari vositasida bajarilgan qurilish ishlari hajmi yig'indisidan iborat bo'ladi:

$$V = V_{xq} + V_{ytq} + V_{ytt} + P_t ,$$

bu yerda:

V – jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmi (ming so'm);

V_{xq} – jismoniy shaxslar tomonidan noturar joy qurilish ishlari hajmi (ming so'm);

V_{ytq} – jismoniy shaxslar tomonidan ishga tushirilgan yakka tartibdagi turar joylarning umumiy qiymati (ming so'm);

V_{ytt} – jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibda turar joylarni ta'mirlash ishlari hajmi (ming so'm);

P_t – jismoniy shaxslar tomonidan t -texnikasi vositasida bajarilgan qurilish hajmi (ming so'm).

11. **Savdo sohasi** bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva mollari va parrandalar hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tashqari boshqa oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari savdosi bilan tegishli ruxsatnomalarsiz shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o'z ichiga oladi.

Savdo sohasi bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni statistik baholashda quyidagi ma'lumotlar manbalaridan foydalaniladi:

4 savdo (yatt) (choraklik) "Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risida so'rovnoma" ma'lumotlari;

4 bozor (choraklik) "Qishloq xo'jalik mahsulotlari sotuvchi jismoniy shaxslar to'g'risida so'rovnoma" ma'lumotlari;

4 bozor (chorva) (choraklik) "Chorva mollari va parrandalarni sotuvchi jismoniy shaxslar to'g'risida so'rovnoma" ma'lumotlari (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Tanlanma kuzatuvda dehqon bozorlarida 50 tadan kam bo'lmagan va chorva bozorlarida 30 tadan kam bo'lmagan savdo faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qamrab olinadi. Kuzatuv natijalarini bosh to'plamga tarqatish dehqon bozorlaridagi rastalar soni va chorva bozorlaridagi jami olib kirilgan chorva mollari bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Kuzatuv uchun tanlangan dehqon bozorlaridagi savdo rastalari soni (har chorakda aniqlik kiritilib boriladi) va chorva bozorlariga olib kirilgan chorva mollari bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar (hisobot davridan keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay) bozor ma'muriyati ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Dehqon va chorva bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning amalga oshirgan savdo hajmi quyidagi formula asosida baholanadi.

$$t_g = \sum_{i=1}^n (q_i \times p_i) \times m_i \times d_g,$$

bu yerda:

t_g – g -bozordagi jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi;

q_i – i -tovar bo'yicha bir savdo nuqtasiga to'g'ri keladigan savdo hajmi;

p_i – i -tovarning kuzatuv natijasida shakllangan narxi;

m_i – i -tovar bo'yicha savdo nuqtalari soni;

d_g – g -bozorning savdo kunlari soni.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar (ruxsatnoma hujjatiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan jismoniy shaxslar) tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi choraklik tanlanma kuzatuvlar asosida baholanadi. Bunda soliq organlarida jami ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini to'xtatmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning 10 foizdan kam bo'lmagan qismi o'rganiladi.

Ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar soni kuzatuv jarayonida aniqlangan ruxsatnomaga ega bo'lmagan va bo'lgan jismoniy shaxslarning o'zaro nisbatini soliq organlarida jami ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini to'xtatmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar soniga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi quyidagi formula asosida baholanadi.

$$Q_i = \sum_{i=1}^n k_i \times q_i ,$$

bu yerda:

Q_i - ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmi;

k_i - i -tovar bo'yicha hisobot davrida ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar soni;

q_i - tanlanma kuzatuv ma'lumotiga asosan ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lmagan bir jismoniy shaxsning i -tovar bo'yicha hisobot davridagi o'rtacha tovar aylanmasi hajmi.

12. Xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiy faoliyat belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi va iste'molchilarga bozor xizmatlari (yuk va yo'lovchi tashish, repetitorlar va boshqa ta'lim xizmatlari, tibbiy xizmatlar, turar va noturar joylarni ijaraga berish, maishiy xizmatlar v.b.)ni ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasida norasmiy iqtisodiy faoliyatni statistik baholashda quyidagi ma'lumotlar manbalaridan foydalaniladi:

4 xizmat (jsh) (choraklik) "Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar bo'yicha so'rovnoma" ma'lumotlari;

4 tr (jsh) (choraklik) "Shaxsiy avtomototransport egalarining tashish faoliyati to'g'risida so'rovnoma" ma'lumotlari (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Kuzatuv bozor xizmatlarini ko'rsatish markazlari, mahalla guzarlari, savdo komplekslari, dehqon va buyum bozorlari hamda boshqa doimiy ravishda xizmat ko'rsatiladigan joylarda amalga oshiriladi.

Ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lmagan (ro'yxatdan o'tmagan) jismoniy shaxslar bo'yicha xizmatlar hajmini baholash quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$V_n = V_m \times L_{ns} ,$$

$$L_{ns} = \frac{L_{rs}}{W_{ru}} \times 100\% - L_{rs} ,$$

bu yerda:

V_n – ro'yxatdan o'tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarning ko'rsatgan

xizmatlari hajmi;

V_m – kuzatuv bo'yicha ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lmagan bitta tadbirkorga to'g'ri keladigan o'rtacha xizmatlar hajmi;

L_{ns} – ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar soni;

L_{rs} – soliq organlari ma'lumotlari bo'yicha ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar soni;

W_{ru} – kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha hisobot davrida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslarning ulushi.

Tanlanma kuzatuvlar asosida olingan ma'lumotlarni haqqoniyligi va xolisligini nazorat qilish maqsadida boshqa statistika ma'lumotlari, jumladan, uy xo'jaliklari kuzatuv, tarmoqlar statistikasi kuzatuvlari va shu kabi boshqa kuzatuvlar ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

Shu jumladan, transport, yashash va ovqatlanish, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa xizmatlar bo'yicha norasmiy iqtisodiyot hajmini uy xo'jaliklari xarajatlari orqali baholashda maxsus kuzatuvlar "Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash maqsadida uy xo'jaliklari xarajatlarini o'rganish bo'yicha tanlanma kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi" (*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2023- yil 13- iyundagi 36- son buyrig'i bilan tasdiqlangan*) asosida amalga oshiriladi.

12.1. Tashish xizmatlari bo'yicha norasmiy iqtisodiy faoliyatni baholash maqsadida tashkil etiladigan tanlanma kuzatuvlar quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida yuk tashish;

shaharlararo yo'nalishlarda yuk tashish;

shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida yo'lovchi tashish;

shaharlararo yo'nalishlarda yo'lovchi tashish.

Yuqorida qayd etilgan tashish xizmatlari yo'nalishlari bo'yicha har bir hudud bo'yicha kuzatuv obyektlarini tanlash tasodifiy tanlov asosida amalga oshiriladi.

Kuzatuvda jamoat transporti to'xtash joylarida, bozor va temir yo'l stansiyalariga yaqin joylarda, aeroportdagi avtoturargohlarda, savdo markazlarida, jamoat joylarida, ko'p qavatli uylar yonida va boshqa aholi gavjum bo'lgan joylarda tashish faoliyati bilan shug'ullanadigan (ruxsatnomaga ega bo'lgan va ega bo'lmagan) barcha shaxslarning 30 % dan ko'p bo'lmagan qismi qamrab olinadi.

Masalan, avtoturargohda yuk tashish bilan shug'ullanuvchi 10 ta yuk mashinasi mavjud, ulardan 7 tasi yuk ko'tarish qobiliyati 3 tonnagacha bo'lgan, 3 tasi yuk ko'tarish qobiliyati 5 tonnagacha bo'lgan avtomobillar. Shuning uchun, 30 foizli tanlashga muvofiq, yuk ko'tarish qobiliyati 3 tonnagacha bo'lgan 2 ta va yuk ko'tarish qobiliyati 5 tonnagacha bo'lgan 1 ta avtomobilni kuzatish kerak. Yo'lovchi tashish avtomobillarini tanlash ham shu tarzda amalga oshiriladi. Agar avtoturargohda 26 ta avtomobil mavjud bo'lsa (10 ta "Damas" rusumli va 16 ta yengil avtomobil), shunda 3 ta "Damas" rusumli avtomobilni va 5 ta yengil avtomobilni kuzatish kerak.

4-bob. Norasmiy iqtisodiy faoliyat bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmini hisoblash

13. Norasmiy iqtisodiy faoliyat bo'yicha qo'shilgan qiymat hajmi ishlab chiqarish va oraliq iste'mol o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Norasmiy iqtisodiy faoliyat bo'yicha ishlab chiqarish hajmi yuqorida keltirib o'tilgan tarmoqlar bo'yicha tanlanma kuzatuvlar natijalari asosida hisoblanadi.

Oraliq iste'mol hajmi esa ishlab chiqarish hajmini oraliq iste'mol koeffitsiyenti (oraliq iste'molning ishlab chiqarishdagi ulushi)ga ko'paytirish orqali aniqlanadi. Norasmiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarishda oraliq iste'mol ulushi yillik milliy hisoblarda tegishli faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun hisoblangan oraliq iste'mol ulushiga teng deb qabul qilinadi.

5-bob. Yashirin iqtisodiyotni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha maxsus kuzatuvlar asosida baholash

14. Yashirin iqtisodiy faoliyat hajmini baholashda yuridik shaxslarning faoliyati bo'yicha maxsus kuzatuvlar o'tkazish muhim o'rin tutadi. Bunda maxsus tanlanma kuzatuvlardan olingan natijalar mavjud rasmiy statistika kuzatuvlari ma'lumotlari bilan taqqoslanadi, tahlil qilinadi hamda yuridik shaxslar faoliyatini ifodalovchi bilvosita ma'lumotlar asosida hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

Iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida yashirin iqtisodiyotni o'rganish maqsadida amalga oshiriladigan maxsus tanlanma kuzatuvlar iqtisodiy faoliyat turidan kelib chiqib, kuzatuv obyektlari, maqsadlari va so'rovnomalarning tarkibi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

15. **Qishloq xo'jaligi** bo'yicha yashirin iqtisodiyotni baholashda fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tasarrufidagi qishloq xo'jaligi ekinlari, ko'p yillik daraxtlar maydonlari, chorva mollari va parrandalar bosh soni, baliq ovlash, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini aniqlash uchun maxsus tanlanma kuzatuvlar o'tkaziladi.

Fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning tanlanma to'plamini shakllantirish uchun **muntazam (mexanik) tanlash usulidan** foydalaniladi. Muntazam tanlash tanlanmani tuzish jarayonini yaxshiroq kuzatish va tanlanma to'plamdagi xatoliklar darajasini pasaytirish imkonini beradi, shuningdek, geografik taqsimotni ta'minlash xususiyatiga ega.

Tanlash va kuzatuv birligi bo'lib, faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Tanlanma to'plamni shakllantirishda to'ldirilgan savolnomalar natijasida olinadigan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi hisobga olinadi. Tanlanma to'plamni shakllantirish uchun asos sifatida o'rganiladigan mahsulot turlarini yetishtiruvchi va o'rganiladigan turdagi mollar va parrandalar bosh soni mavjud

bo'lgan barcha faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar sonidan (bosh to'plam) foydalaniladi.

Kuzatuvlar uchun ro'yxatni tuzishda fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar ko'rsatkichlarning o'sib borishi tartibida (ranjirlanadi) taqsimlanadi (shartli misollar 1-2-ilovalarda ko'rsatilgan).

Tartiblangan qator bu tanlanmaning o'rganilayotgan belgilari ayrim birliklarini o'sib yoki kamayib boruvchi tartibda taqsimlashdir. Tartiblash miqdoriy belgilarni guruhlar bo'yicha oson ajratish, eng kichik va eng katta belgilarni darhol aniqlash, eng ko'p takrorlanayotgan belgilarni ajratish imkonini beradi.

Dehqonchilik bo'yicha tanlash asoslari:

Fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning tartiblangan ro'yxati quyidagi to'plamlar bo'yicha alohida shakllantiriladi.

To'plam 1 – don va dukkakli don ekinlari maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 2 – boshqoli don ekinlari maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 3 – makkajo'xori don uchun ekin maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 4 – sholi ekin maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 5 – dukkakli don ekinlari maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 6 – kartoshka ekin maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 7 – sabzavot ekinlari maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 8 – oziqbop poliz ekinlari maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 9 – mevalar va rezavorlar maydonlari mavjud subyektlar;

To'plam 10 – tokzorlar maydonlari mavjud subyektlar.

Chorvachilik bo'yicha tanlash asoslari:

Fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning tartiblangan ro'yxati quyidagi to'plamlar bo'yicha alohida shakllantiriladi.

To'plam 11 – yirik shoxli qoramollari mavjud subyektlar;

To'plam 12 – sigirlar bosh soni mavjud subyektlar;

To'plam 13 – qo'y va echkilar bosh soni mavjud subyektlar;

To'plam 14 – cho'chqalar bosh soni mavjud subyektlar;

To'plam 15 – otlar bosh soni mavjud subyektlar;

To'plam 16 – parrandalar bosh soni subyektlar;

To'plam 17 – ovlangan baliqlar hajmi mavjud subyektlar;

To'plam 18 – olingan asal hajmi yoki asalari uyalari mavjud subyektlar.

Demak, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni kuzatish uchun o'rganiladigan ko'rsatkichlarning soniga muvofiq alohida 18 ta to'plam shakllantiriladi.

Fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar sonini aniqlash uchun 1- yanvar holatiga ko'ra 1 fx "Fermer xo'jaligi

faoliyati to'g'risida hisobot", 1 qx (tashkilot) "Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1 korxona shakli (yillik) "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot" ma'lumotlaridan hamda Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYADR) ma'lumotlaridan foydalaniladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Kuzatuvlar uchun tartiblangan ro'yxatdan fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni tanlab olish 1-jadval yordamida amalga oshiriladi. Jadvalda fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni ularning bosh to'plamdagi soniga bog'liq ravishda guruhlash va tanlash foizi, tanlanma to'plamdagi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning soni, tanlash oralig'i (qadami) keltirilgan.

Tanlash oralig'i bosh to'plamdagi birliklar sonini tanlanma to'plamdagi birliklar soniga bo'lish orqali quyidagi formuladan foydalanib hisoblanadi:

$$a = \frac{N}{n},$$

bu yerda:

a – tanlash oralig'i (qadami);

N – bosh to'plamdagi birliklar soni;

n – tanlanma to'plamdagi birliklar soni.

Masalan, tumanda bug'doy ekin maydonlari mavjud jami 662 birlik fermer xo'jaliklari yoki qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar mavjud (bosh to'plam), 1-jadval ma'lumotlari bo'yicha mazkur tumanda kuzatuv o'tkazish uchun tanlash foizi 8,0 foizni tashkil qiladi, shu tarzda kuzatuvlarni o'tkazish uchun tuman bo'yicha 53 ($662 / 100 \times 8,0 = 53$) birlik xo'jalik (tanlanma to'plam) tanlab olinadi. Bunday holatda tanlash qadami 13 ni ($662 / 53 = 13$) tashkil qiladi, bunda tanlash boshida ro'yxatga "1" - tartib raqami bilan kiritilgan xo'jalik tanlanadi va keyin har 13-xo'jalik tanlanadi.

Har bir to'plam bo'yicha tartiblangan ro'yxat tuzilganidan, tanlash foizi, tanlanma to'plamdagi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning soni, tanlash oralig'i (qadami) aniqlanganidan keyin har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha alohida kuzatuvlar uchun fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning yakuniy ro'yxati (**tanlanma to'plam (n)**) tuziladi.

Kuzatuvlar uchun tartiblangan ro'yxatdan fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni tanlash

t.r.	Fermer xo'jalik (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot)larini ularning bosh to'plamdagi soniga (N) bog'liq ravishda		Tanlanma to'plamdagi fermer xo'jalik (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot)larining soni(n), birlik (gr. 4 = 2 / 100 * 3)	Tanlash qadami (interval) (a) $(a = \frac{N}{n})$ (gr.5 = 2 / 4)
	guruhlash, birlik	tanlash foizi (w)		
1	2	3	4	5
1	1 - 100	50,0	50	2
2	101 - 150	35,0	53	3
3	151 - 200	25,0	50	4
4	201 - 250	20,0	50	5
5	251 - 300	17,0	51	6
6	301 - 350	15,0	53	7
7	351 - 400	13,0	52	8
8	401 - 500	11,0	55	9
9	501 - 600	9,0	54	11
10	601 - 700	8,0	56	13
11	701 - 800	7,0	56	14
12	801 - 1100	5,0	55	20
13	1101 - 1400	4,0	56	25
14	1401 - 1700	3,0	51	33
15	1701 va yuqori	2,9	49	34

Yakuniy ro'yxatda faqat kuzatuvlar o'tkazilishi lozim bo'lgan fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar qoldiriladi.

Yakuniy ro'yxat Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar va har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha alohida tuziladi (shartli misol 3-ilovada ko'rsatilgan).

Axborotlarni yig'ish qat'iy ravishda kuzatuvlar uchun tanlab olingan fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni qamrab olgan holda barcha hududlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Masalan, **To'plam 1** – bug'doy ekin maydonlari mavjud fermer xo'jalik (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot)larining tartiblangan tuman ro'yxatiga 662 birlik fermer xo'jalik (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot)lari kiritilgan, shundan, kuzatuvlar uchun 8,0 foiz xo'jalik yoki 53 birlik tanlab olingan.

Kuzatuv o'tkazilgan 53 xo'jalik bo'yicha umumiy hajmda 265 sentner don ekinlari hosili olingan (q).

Yig'ib olingan don ekinlari yalpi hosili bo'yicha tanlanma to'plam ma'lumotlarini bosh to'plamga tarqatish quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$Q_j = \frac{q \times 100 \%}{w},$$

bu yerda:

Q_j – bosh to'plamdagi don ekinlari yalpi hosili hajmi, sentner;

q – tanlanma to'plamdagi don ekinlari yalpi hosili hajmi, sentner;

w – bosh to'plamdan tanlanma to'plamdagi xo'jaliklarni tanlash foizi;

j – kuzatuv o'tkazilayotgan tuman.

$$Q_j = \frac{265 \times 100 \%}{8,0 \%} = 3312,5 \text{ sentner.}$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko'ra hudud bo'yicha bosh to'plamdagi don ekinlarining yalpi hosili 3312,5 sentnerni tashkil qiladi.

Shu kabi so'rovnomaning boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha kuzatuv ma'lumotlari bosh to'plamga tarqatiladi.

Kuzatuv natijalari asosida amalga oshirilgan hisob-kitoblar bosh to'plamga keltirilib, joylardagi fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan statistika hisoboti ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Yuzaga kelgan farq hisobot taqdim etuvchi subyektlar tomonidan yashirilgan deb baholanadi va uning ulushi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$Y_i = \frac{Q_i - H_i}{H_i} \times 100 \%,$$

bu yerda:

Y_i – i -mahsulot turi kesimida hisobot taqdim etgan subyektlar tomonidan yashirilgan hajm ulushi, foizda;

Q_i – i -mahsulot turi kesimida kuzatuv natijalarining bosh to'plamga keltirilgan hajmi;

H_i – i -mahsulot turi kesimida subyektlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar bo'yicha ishlab chiqarish hajmi.

16. Sanoat, qurilish, savdo, axborot va ko'chmas mulk bilan operatsiyalar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar sohalarida yashirin iqtisodiy faoliyat hajmini baholashda bandlik ko'rsatkichlari usulidan yoki soliq tekshiruvi natijalaridan foydalaniladi. Mazkur usullar haqida batafsil ma'lumot 6-bobda keltirilgan.

Bandlik ko'rsatkichlari usulida yuridik shaxslarning statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida har bir xodimga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aniqlanadi. Shuningdek, olingan natijani

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan o'tkaziladigan aholi bandligi kuzatuv ma'lumotlari asosida aniqlangan rasmiy mehnat shartnomalarisiz ishlovchilar soniga ko'paytirish orqali tegishli faoliyat turi bo'yicha jami kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi aniqlanadi:

$$V_k = \frac{V_h}{L_h} \times L_k ,$$

bu yerda:

V_k – tegishli faoliyat turi bo'yicha jami kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi;

V_h – tegishli faoliyat turi bo'yicha yuridik shaxslarning statistika hisobotlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yoki ko'rsatilgan xizmatlar hajmi;

L_h – tegishli faoliyat turi bo'yicha statistika hisobotlariga ko'ra yuridik shaxslarda band bo'lgan xodimlar (yollanma ishchilar) soni;

L_k – Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi aholi bandligi kuzatuv ma'lumotlari asosida tegishli faoliyat turi bo'yicha rasmiy mehnat shartnomalarisiz ishlovchilar soni.

Tegishli faoliyat turi bo'yicha jami kuzatilmaydigan iqtisodiyot hajmi va norasmiy iqtisodiyot hajmi orasidagi farq yashirin iqtisodiyot hajmi deb qabul qilinadi:

$$V_y = V_k - V_n ,$$

bu yerda:

V_y – tegishli faoliyat turi bo'yicha yashirin iqtisodiyot hajmi;

V_n – tegishli faoliyat turi bo'yicha norasmiy iqtisodiyot hajmi.

Masalan, statistika hisobotlari bo'yicha 70 588,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajargan korxonalarda 230,5 mingta xodim ishlagan, hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi aholi bandligi kuzatuv ma'lumotlari asosida qurilish sohasida rasmiy mehnat shartnomalarisiz ishlovchilar soni 358,5 mingtani tashkil etgan. Shuningdek, norasmiy qurilish ishlari hajmi 17 235,6 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Hisoblangan jami kuzatilmaydigan qurilish ishlari hajmi 109 786,9 mlrd. so'mni tashkil etadi:

$$V_k = \frac{70\,588,2}{230,5} \times 358,5 = 109\,786,9 \text{ mlrd. so'm.}$$

Yashirin qurilish ishlarining hajmi esa 92 551,3 mlrd. so'mni tashkil etadi:

$$V_y = 109\,786,9 - 17\,235,6 = 92\,551,3 \text{ mlrd. so'm.}$$

17. Savdo sohasida yashirin iqtisodiy faoliyatni statistik baholash uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlarini o'rganish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Chakana savdo sohasida yashirin iqtisodiy faoliyatni uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlarini o'rganish orqali baholash uchun Uy xo'jaliklari so'rovnomasidan oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mahsulotlarga sarflangan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida bosh to'plamga tarqatilgan barcha iste'mol xarajatlari hudud bo'yicha jami chakana savdo aylanmasi (rasmiy, norasmiy va yashirin savdo faoliyatini qo'shgan holda) hajmini ifodalaydi.

Yashirin chakana savdo hajmini aniqlash uchun kuzatuv natijalari asosida hisoblab topilgan jami chakana savdo hajmidan rasmiy statistik hisobotlar asosida shakllantirilgan rasmiy faoliyat va maxsus kuzatuvlar asosida aniqlangan norasmiy faoliyat hajmlari ayirib tashlanadi:

$$V_y = V_j - V_r - V_n,$$

bu yerda:

V_y – yashirin chakana savdo hajmi;

V_j – jami chakana savdo hajmi (uy xo'jaliklarining tovarlarni sotib olishga sarflagan jami xarajatlari);

V_r – rasmiy statistika hisobotlari asosida shakllantirilgan chakana savdo hajmi;

V_n – maxsus kuzatuvlar natijasida aniqlangan norasmiy chakana savdo hajmi.

Ulgurji savdo sohasida yashirin iqtisodiy faoliyatni baholash chakana savdo sohasida aniqlangan yashirin iqtisodiy faoliyat hajmini chakana savdo bo'yicha rasmiy faoliyat hajmiga nisbatidan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$V_{yu} = V_{ru} \times \frac{V_{ych}}{V_{rch}},$$

bu yerda:

V_{yu} – yashirin ulgurji savdo hajmi;

V_{ru} – ulgurji savdo bo'yicha rasmiy faoliyat hajmi;

V_{ych} – yashirin chakana savdo hajmi;

V_{rch} – chakana savdo bo'yicha rasmiy faoliyat hajmi.

18. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari bo'yicha yashirin iqtisodiy faoliyatni statistik baholash xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslarning maxsus tanlanma kuzatuvlarini o'tkazish yoki uy xo'jaliklari tomonidan xizmatlarga qilingan xarajatlarni o'rganish orqali amalga oshirilishi mumkin (mazkur Nizomning 16-bandida ko'rsatilgan xizmat turlari bundan mustasno).

Xizmat ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslarning maxsus tanlanma kuzatuvlari asosidagi statistik baholashda yuridik shaxslarning bozor xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini maxsus tanlanma kuzatuvlari 1 xizmat (bir martalik) "Tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati bo'yicha tanlanma statistika so'rovnomasi" asosida IFUT-2 tasniflagichining tegishli xizmat turlari (G-S seksiyalari) kesimida o'tkaziladi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Tanlanma kuzatuvda bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi yirik tashkilotlar, kichik korxona va mikrofirmalar umumiy sonining 5 foizi tanlab olib kuzatiladi.

Yuridik shaxslarning yashirin iqtisodiy faoliyati so'rovnoma natijalariga ko'ra aniqlangan mehnat shartnomalarisiz xizmat ko'rsatish sohasida ishlayotgan ishchilar sonidan kelib chiqqan holda baholanadi.

Hisob-kitoblar quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$L_n = L_j - \frac{L_j \times L_{md}}{100 \%},$$

$$L_{nu} = \frac{L_n}{L_j} \times 100 \% ,$$

bu yerda:

L_n – xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turida mehnat shartnomalarisiz ishlayotgan ishchilar soni, kishi;

L_j – xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turida jami ishlayotgan ishchilar soni, kishi;

L_{md} – xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turida mehnat daftarchasi va shartnomasi mavjud ishchilar ulushi, foizda;

L_{nu} – xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turida mehnat shartnomalarisiz ishlayotgan ishchilar ulushi, foizda.

Keyingi bosqichda, xizmat ko'rsatuvchi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat shartnomalarisiz ishlayotgan ishchilar ulushidan kelib chiqib, tegishli xizmatlar turlari bo'yicha yashirin iqtisodiy faoliyat hajmi aniqlanadi.

Hisob-kitoblar quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$Q_y = \frac{Q_h}{L_{md}} \times L_{nu} ,$$

bu yerda:

Q_y – yashirin xizmat ko'rsatish hajmi, mln. so'm;

Q_h – rasmiy statistika hisobotlari asosida shakllantirilgan xizmat ko'rsatish hajmi, mln. so'm.

Masalan, xizmat ko'rsatish faoliyat turi bo'yicha kuzatuv o'tkazilgan korxonalarda jami ishlayotgan ishchilar soni 2250 kishi va ularning 80 foizi mehnat daftarchasi va shartnomasiga ega ekanligi ma'lum. Muayyan faoliyat turi bo'yicha mehnat shartnomalarisiz ishlayotgan ishchilar ulushidan va rasmiy statistika hisobotlari asosida shakllantirilgan xizmat ko'rsatish hajmi 686 890,3 mln. so'mligidan kelib chiqib, yashirin iqtisodiy faoliyat hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_y = \frac{686\,890,3}{80 \%} \times 20\% = 171\,722,6 \text{ mln. so'm.}$$

Demak, kuzatuv natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish faoliyat turi bo'yicha yashirin iqtisodiy faoliyat hajmi 171 722,6 mln. so'mni tashkil etadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari bo'yicha yashirin iqtisodiy faoliyat uy xo'jaliklari tomonidan xizmatlarga qilingan xarajatlarni o'rganish orqali

baholanadi. Uy xo'jaliklarining xizmatlarga qilingan xarajatlarini aniqlashda uy xo'jaliklari budjetlarini muntazam kuzatuv ma'lumotlaridan foydalaniladi. Ushbu ma'lumotlar orqali kutilgan natijaga erishilmasa, uy xo'jaliklari xarajatlarini o'rganish bo'yicha maxsus tanlanma kuzatuvlar tashkil qilinadi. Mazkur kuzatuvlar "Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash maqsadida uy xo'jaliklari xarajatlarini o'rganish bo'yicha tanlanma kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazish tartibi" asosida amalga oshiriladi.

Uy xo'jaliklari xarajatlarini o'rganish bo'yicha tanlanma kuzatuv O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida aniq va ishonchli ma'lumotlarni olish maqsadida tanlanma usulda o'tkaziladi. Har bir hudud bo'yicha alohida shahar va qishloq uchun uy xo'jaliklarini stratifikatsiyalash (qatlamlarga ajratish) orqali bosh to'plam birliklari soni aniqlanadi va tanlanma kuzatuv to'plami uy xo'jaliklari bosh to'plamining bir qismini (0,1 %) tashkil etadi. Mazkur tanlanma kuzatuv 2 xarajat (bir martalik) "Uy xo'jaliklari xarajatlarini o'rganish so'rovnomasi" bo'yicha o'tkaziladi. Kuzatuv natijalari bosh to'plamga har bir strata (qatlam) ning ulushidan kelib chiqqan holda tarqatiladi.

Uy xo'jaliklari xarajatlarini o'rganish bo'yicha tanlanma kuzatuv quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan savollarni qamrab oladi:

uy xo'jaliklari a'zolarining demografik xususiyatlari (uy xo'jaligi tarkibi, uy xo'jaligi a'zolarining yoshi, bandligi);

uy xo'jaliklari a'zolarining transport turlari bo'yicha oylik yo'lkira xarajatlari, uy xo'jaligi tasarrufidagi transport vositasidan foydalanish xarajatlari;

uy xo'jaliklari a'zolarining kundalik turmush tarzi va alohida vaziyatlar hamda marosimlarga ko'ra yashash va ovqatlanish muassasalariga tashrifi xarajatlari;

uy xo'jaliklari a'zolarining pullik ta'lim xizmatlariga xarajatlari;

uy xo'jaliklari a'zolarining sog'liqni saqlash xizmatlari hamda dori-darmonlar va farmatsevtik mahsulotlar uchun xarajatlari;

uy xo'jaliklari a'zolarining madaniyat va boshqa xizmatlar turlari bo'yicha xarajatlari.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida bosh to'plamga tarqatilgan xizmat turlari bo'yicha xarajatlar hajmi hudud bo'yicha aholiga ko'rsatilgan jami xizmatlar (rasmiy, norasmiy va yashirin faoliyatni qo'shgan holda) hajmini ifodalaydi.

Muayyan xizmat turi bo'yicha yashirin faoliyat hajmini aniqlash uchun aholiga ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmidan rasmiy statistika hisobotlari asosida shakllantirilgan rasmiy faoliyat va maxsus kuzatuvlar asosida aniqlangan norasmiy faoliyat hajmlari ayirib tashlanadi:

$$Q_y = Q_j - Q_r ,$$

bu yerda:

Q_y – aholiga ko'rsatilgan yashirin xizmatlar hajmi;

Q_j – aholiga ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmi (uy xo'jaliklarining xizmatlarga sarflagan jami xarajatlari);

Q_r – rasmiy statistika hisobotlari asosida shakllantirilgan aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar va maxsus kuzatuvlar natijasida aniqlangan norasmiy faoliyat hajmi.

19. Yashirin iqtisodiy faoliyat bo‘yicha qo‘shilgan qiymat hajmi ishlab chiqarish va oraliq iste‘mol o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Yashirin iqtisodiy faoliyat bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi yuqorida keltirib o‘tilgan maxsus kuzatuvlar, shuningdek, ma‘muriy ma‘lumotlar va ekspert baholashlar asosida hisoblanadi.

Oraliq iste‘mol hajmi esa ishlab chiqarish hajmini oraliq iste‘mol koeffitsiyenti (oraliq iste‘molning ishlab chiqarishdagi ulushi)ga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Yashirin iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarishda oraliq iste‘mol ulushi yillik milliy hisoblarda tegishli faoliyat turlari bo‘yicha yuridik shaxslar (yirik korxonalar hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar) uchun hisoblangan oraliq iste‘mol ulushlariga teng deb qabul qilinadi.

6-bob. Yashirin iqtisodiyotni bandlik ko‘rsatkichlari va soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanish usullari orqali baholash

20. Yashirin iqtisodiyotni baholash, ro‘yxatdan o‘tmagan nisbatan katta hajmda mahsulot ishlab chiqaruvchilar va hisobotda ataylab noto‘g‘ri ma‘lumotlarni ko‘rsatadigan yuridik shaxslar bo‘yicha alohida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, ko‘pgina xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, **bandlik ko‘rsatkichlari va soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanish usullari barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yashirin iqtisodiyot hajmini aniqlashda foydalaniladi.**

21. Soliqlar va ijtimoiy sug‘urta badallarini to‘lashdan qochib, ataylab ro‘yxatdan o‘tmagan hamda ro‘yxatdan o‘tgan biroq haqiqiy ishlab chiqarish hajmini yashiruvchi ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarning ishlab chiqarish hajmi **bandlik ko‘rsatkichlari usulidan** foydalanib aniqlanadi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholashda bandlik ko‘rsatkichlari usuli muhim usullardan biri bo‘lib, o‘tgan asrning 80-yillarida Italiyada birinchilardan bo‘lib qo‘llanilgan. Shuning uchun bu usulni “italyancha usul” desa ham bo‘ladi. Bu usuldan Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya, Hindiston va boshqa yana ko‘pgina davlatlar foydalanadi. Ayniqsa, kichik korxonalarni kuzatishda bu usuldan foydalanish samarali hisoblanadi.

Bandlik ko‘rsatkichlari usuli uch bosqichda amalga oshiriladi:

- ishchi kuchi kuzatuv yoki boshqa demografik manbalar ma‘lumotlari asosida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha korxonalar turlari (yirik, kichik korxonalar, mikrofirmalar) kesimida ishlab chiqarishga mehnat sarfini (bandlar soni, bir hafta davomida o‘rtacha ishlangan soatlarni) aniqlash;

- statistika kuzatuvlari ma‘lumotlari asosida har bir faoliyat va korxonalar turlari bo‘yicha bir birlik mehnat sarfiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmini aniqlash;

- iqtisodiy faoliyat va korxonalar turlari bo'yicha bir birlik mehnat sarfiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmini jami mehnat sarfiga ko'paytirish.

Hisoblash algoritmi:

1) Rasmiy statistika ma'lumotlari asosida bitta ishchiga o'rtacha to'g'ri keladigan bir haftada ishlangan soatlarni qonunchilikda belgilangan me'yoriy ish vaqti davomiyligiga (40 soat) bo'lish orqali to'liq ish haftasida ishlangan vaqt koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$k_v = \frac{t_v}{40},$$

bu yerda:

k_v – to'liq ish haftasida ishlangan vaqt koeffitsiyenti;

t_v – bitta ishchiga o'rtacha to'g'ri keladigan bir haftada ishlangan soatlar;

40 – qonunchilikda belgilangan haftalik me'yoriy ish vaqti davomiyligi.

2) Rasmiy statistika ma'lumotlari asosida to'liq ish haftasida ishlaydigan ishchilar soni aniqlanadi:

$$L_t = L_j \times k_v,$$

bu yerda:

L_t – to'liq ish haftasida ishlaydigan ishchilar soni, kishi;

L_j – jami, asosiy ishda band bo'lgan aholi soni, kishi.

3) Rasmiy statistika ma'lumotlari asosida to'liq ish haftasida ishlaydigan bitta ishchiga to'g'ri keladigan yalpi ishlab chiqarish hajmini hisoblaymiz:

$$Y_i = \frac{Y}{L_t},$$

bu yerda:

Y_i – iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha to'liq ish haftasida ishlaydigan bitta ishchiga to'g'ri keladigan yalpi ishlab chiqarish hajmi, mln.so'mda;

Y – yalpi ishlab chiqarish, mln.so'mda.

4) Ishchi kuchi tanlanma kuzatuv ma'lumotlari bo'yicha asosiy ishda og'zaki kelishuv asosida ishlaydigan aholi soni aniqlanadi, bunda "So'rov o'tkazilayotgan hafta davomida Sizning asosiy ish faoliyatingiz?" degan savolga berilgan javoblar hamda "Mehnat faoliyatingiz shakli?" degan savolga "Og'zaki kelishuv asosida" degan javoblardan foydalaniladi.

Asosiy ishda ishlaydigan aholi soni "Iltimos, tashkilotning (tashkilotning tarkibiy bo'linmasi), yakka tartibdagi tadbirkor va boshqa (Siz yollangan) jismoniy shaxs faoliyatining asosiy faoliyat turi kodini ko'rsating" degan savolga olingan javoblarga muvofiq, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha shakllantiriladi.

Asosiy ishda ishlaydigan bitta ishchiga o'rtacha to'g'ri keladigan bir haftada ishlangan soatlar "Oxirgi bir haftada necha soat ishladingiz?" degan savolga olingan javoblar bo'yicha hisoblanadi.

5) Xuddi shu tarzda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha og'zaki kelishuv asosida qo'shimcha ishda ishlaydigan aholi soni va bitta ishchiga o'rtacha to'g'ri keladigan qo'shimcha ishda bir haftada ishlangan soatlar aniqlanadi. Bunda ishchi kuchi tanlanma kuzatuv so'rovnomasining "So'ralgan hafta davomida sizning qo'shimcha amalga oshirgan ish faoliyatingiz?" degan savoliga berilgan javoblar, "Haftada necha soat qo'shimcha ishda ishladingiz?" hamda "Mehnat faoliyatingiz shakli?" degan savolga "Og'zaki kelishuv asosida" degan javoblaridan foydalaniladi.

6) Og'zaki kelishuv asosida asosiy ishda ishlaydigan aholi uchun haftasiga 40 soatga nisbatan ishlagan vaqt koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$k_a = \frac{t_a}{40},$$

bu yerda:

k_a – og'zaki kelishuv asosida asosiy ishda ishlaydigan aholi uchun to'liq ish haftasida ishlangan vaqt koeffitsiyenti;

t_a – og'zaki kelishuv asosida asosiy ishda ishlaydigan bitta ishchiga o'rtacha to'g'ri keladigan bir haftada ishlangan soatlar.

7) Og'zaki kelishuv asosida asosiy ishda to'liq ish haftasida ishlaydigan ishchilar soni aniqlanadi:

$$L_{at} = L_{aj} \times k_a,$$

bu yerda:

L_{at} – asosiy ishda to'liq ish haftasida ishlaydigan ishchilar soni, kishi;

L_{aj} – jami asosiy ishda band bo'lgan aholi soni, kishi.

8) Og'zaki kelishuv asosida qo'shimcha ishda ishlaydigan aholi uchun haftasiga 40 soatga nisbatan ishlagan vaqti koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$k_q = \frac{t_q}{40},$$

bu yerda:

k_q – og'zaki kelishuv asosida qo'shimcha ishda ishlaydigan aholi uchun to'liq ish haftasida ishlangan vaqt koeffitsiyenti;

t_q – og'zaki kelishuv asosida qo'shimcha ishda ishlaydigan bitta ishchiga o'rtacha to'g'ri keladigan bir haftada ishlangan soatlar.

9) Og'zaki kelishuv asosida qo'shimcha ishda to'liq ish haftasida ishlaydigan ishchilar soni aniqlanadi:

$$L_{qt} = L_{qj} \times k_q,$$

bu yerda:

L_{qt} – qo'shimcha ishda to'liq ish haftasida ishlaydigan ishchilar soni, kishi;

L_{qj} – jami qo'shimcha ishda band bo'lgan aholi soni, kishi.

10) Og‘zaki kelishuv asosida asosiy va qo‘shimcha ishda ishlaydigan aholi tomonidan ishlab chiqarilgan yalpi yashirin ishlab chiqarish hajmi aniqlanadi:

$$Y_y = Y_i * (L_{at} + L_{qt}) ,$$

bu yerda:

Y_y – og‘zaki kelishuv asosida band bo‘lgan ishchilar ishlab chiqargan yalpi yashirin ishlab chiqarish, mln.so‘m.

11) Yalpi yashirin ishlab chiqarish uchun oraliq iste‘mol ulushi har bir iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha milliy hisoblarda qabul qilingan oraliq iste‘mol ulushidan kelib chiqib belgilanadi.

12) Yalpi qo‘shilgan qiymat yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste‘mol o‘rtasidagi farq bilan aniqlanadi:

$$Q_y = Y_y - O_y ,$$

bu yerda:

Q_y – yashirin faoliyat bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat, mln.so‘m;

O_y – yashirin faoliyat bo‘yicha oraliq iste‘mol, mln.so‘m.

22. Daromad, qo‘shilgan qiymat va boshqa soliqlarni yoki ijtimoiy sug‘urta badallarini to‘lashdan qochish uchun ishlab chiqarish hajmini kamaytirib, oraliq iste‘molni ko‘paytirib, hisobotda ataylab noto‘g‘ri ma‘lumotlarni ko‘rsatadigan yuridik shaxslarning ishlab chiqarish hajmi **soliq tekshiruvi natijalaridan** foydalangan holda aniqlanadi.

Soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanib yashirin iqtisodiyotni baholash usulida soliq organlaridan olingan ma‘lumotlar asosida har bir iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha yashirin iqtisodiyot hajmi aniqlanadi hamda shu iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha milliy hisoblarda aniqlangan oraliq iste‘mol ulushidan foydalanib, qo‘shilgan qiymat aniqlanadi.

Bu usulda hisobot davrida soliq nazorat tekshiruvi paytida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha aniqlangan qo‘shimcha hisoblangan QQS, shuningdek, qayta hisoblash uchun ariza berilgan QQS miqdori bo‘yicha ma‘lumotlar hamda milliy hisoblarda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hisoblangan oraliq iste‘mol ulushi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalaniladi.

Soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanish usuli quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1) Hisobot davri uchun **qo‘shimcha hisoblangan QQS miqdori** soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha har bir iqtisodiy faoliyat turi uchun alohida aniqlanadi:

$$S_q = S_j - S_a - S_k,$$

bu yerda:

S_q – tekshiruv natijasida qo‘shimcha hisoblangan QQS, mln.so‘m;

S_j – hisobot davrida jami qo‘shimcha hisoblangan QQS, mln.so‘m;

S_a – qo‘shimcha hisoblangan QQSdan qayta ko‘rib chiqish uchun ariza berilgan qismi, mln.so‘m;

S_k – soliq tekshiruvlari natijasida soliq to‘lovining kamaygan qismi, mln.so‘m.

2) Har bir iqtisodiy faoliyat turi uchun alohida **huquqbuzarlik koeffitsiyenti** hisoblanadi:

$$k_h = \frac{q_h}{q_t},$$

bu yerda:

k_h – huquqbuzarlik koeffitsiyenti, foiz;

q_h – soliq tekshiruvi natijasida huquqbuzarliklar aniqlangan QQS to‘lovchilari soni;

q_t – soliq tekshiruvlari o‘tkazilgan QQS to‘lovchilari soni.

3) Huquqbuzarlik koeffitsiyenti har bir iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha alohida QQS to‘lovchilari soniga nisbatan qo‘llaniladi va **tekshiruv o‘tkazilganda huquqbuzarlik aniqlanishi mumkin bo‘lgan soliq to‘lovchilar soni** aniqlanadi:

$$q_a = q_q \times k_h,$$

bu yerda:

q_a – tekshiruv o‘tkazilganda huquqbuzarlik aniqlanishi mumkin bo‘lgan soliq to‘lovchilar soni;

q_q – QQS to‘lashi kerak bo‘lgan soliq to‘lovchilar soni.

4) Soliq tekshiruvlari natijasida **huquqbuzarlik aniqlangan bitta korxonaga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha hisoblangan QQS miqdori** har bir iqtisodiy faoliyat turi uchun alohida hisoblanadi.

$$S_{qk} = \frac{S_q}{q_h},$$

bu yerda:

S_{qk} – huquqbuzarlik aniqlangan bitta korxonaga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha hisoblangan QQS miqdori, mln.so‘m.

5) Bitta korxonaga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha hisoblangan QQS miqdoridan kelib chiqib, **qo‘shimcha hisoblangan QQS miqdori har bir iqtisodiy faoliyat turi uchun alohida kuzatuv bosh to‘plamiga nisbatan** qo‘llaniladi.

$$S_{qb} = S_{qk} \times q_a,$$

bu yerda:

S_{qb} – bosh to‘plamga nisbatan qo‘llangan qo‘shimcha hisoblangan QQS miqdori, mln.so‘m.

6) Qo‘shimcha hisoblangan QQS miqdorini amaldagi QQS solig‘i stavkasi (12 %)ga nisbati orqali **yashirin ishlab chiqarish hajmini** aniqlanadi:

$$I_y = \frac{S_{qb}}{12} \times 100 \%,$$

bu yerda:

I_y – hisobot davri uchun tekshiruvlar natijasida aniqlangan yashirin ishlab chiqarish hajmi, mln.so‘m.

Oraliq iste‘mol ulushi hisobot davri uchun milliy hisoblarda tegishli iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha qabul qilingan oraliq iste‘mol ulushiga teng bo‘ladi.

YAQQ ishlab chiqarish va oraliq iste‘mol orasidagi farq bilan hisoblanadi.

Yuqoridagi soliq tekshiruvi natijalaridan foydalanish usuli QQSdan boshqa soliq turlari bo‘yicha ham qo‘llanilishi mumkin.

7-bob. Yakuniy qoidalar

23. Statistika hisob-kitoblarida iqtisodiy operatsiyalarni to‘liq qamrab olmaslik yalpi ichki mahsulot va boshqa makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni kamaytirib ko‘rsatilishiga va iqtisodiyot haqida noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuningdek, ushbu holat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni halqaro taqqoslashlarga ham to‘sqinlik qiladi. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni qamrab olish milliy hisoblar statistikasining to‘liqligi, sifatligini va o‘zaro muvofiqligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

24. Ma‘lumotlar qamrovini kengaytirish va tahliliy imkoniyatlarini oshirish maqsadida zarur hollarda norasmiy yoki yashirin faoliyat yurituvchi yuridik va jismoniy shaxslarning ishlab chiqarish faoliyatini batafsil o‘rganish bo‘yicha maxsus tanlanma kuzatuvlar o‘tkazilishi hamda qo‘shimcha ma‘muriy manbalardan foydalanilishi mumkin.

25. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma‘lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sistema natsionalnykh schetov – 2008. Organizatsiya Ob'edinennykh Natsiy, Yevropeyskaya komissiya, Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya, Mejdunarodnyy valyutnyy fond i Vsemirnyy bank, 2009.
2. Izmereniye nenablyudayemoy ekonomiki: Rukovodstvo. Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya, 2002.
3. Non-observed economy in national accounts. Survey of country practices. United Nations, 2008.
4. Shadow economies around the world: What did we learn over the last 20 years? L.Medina, F.Schneider, International monetary fund, WP/18/17, 2018.
5. Metodika otsenki tenevoy ekonomiki po vidam ekonomicheskoy deyatel'nosti, Komitet po statistike Ministerstva natsionalnoy ekonomiki Respubliki Kazaxstan, 2015.
6. Metodika po raschetu ob'yomov nenablyudayemoy ekonomiki, Natsionalnyy statisticheskiy komitet Respubliki Belarus, 2019.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni
statistik baholash bo'yicha
uslubiy nizomga
1-ILOVA

**To'plam 1 – bug'doy ekin maydonlari mavjud
fermer xo'jaliklari (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi
tashkilotlar)ning tartiblangan ro'yxati
(bosh to'plamdagi xo'jaliklar soni, N)**

(shartli misol)

T/r.	Fermer xo'jaliklari (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar) nomi	IFUT-2	Bug'doy ekin maydonlari, gektar, o'sib boruvchi tartibda
1			1
2			2
3			3
...			...
...			...
N			N

Izoh: fermer xo'jalik (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot)larining tartiblangan ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar bo'yicha tuman va shaharlar kesimida hamda har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha tuziladi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni
statistik baholash bo'yicha
uslubiy nizomga
2-ILOVA

**To'plam 2 – yirik shoxli qoramollar bosh soni mavjud
fermer xo'jaliklari (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi
tashkilotlar)ning tartiblangan ro'yxati
(bosh to'plamdagi xo'jaliklar soni, N)**

(shartli misol)

T/r	Fermer xo'jaliklari (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar) nomi	IFUT-2	Yirik shoxli qoramollar bosh soni, bosh, o'sib boruvchi tartibda
1			1
2			2
3			3
...			...
...			...
N			N

Izoh: fermer xo'jalik (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot)larining tartiblangan ro'yxati Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar bo'yicha tuman va shaharlar kesimida va har bir o'rganiladigan chorva mollari turi va parrandalar bo'yicha tuziladi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni
statistik baholash bo'yicha
uslubiy nizomga
3-ILOVA

**Kuzatuvlar uchun tanlab olingan bug'doy ekin maydonlari
mavjud fermer xo'jaliklari (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi
tashkilotlar)ning yakuniy ro'yxati
(tanlanma to'plam, n)**

(shartli misol)

T/r	KTUT	STIR	Fermer xo'jaliklari (qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar) nomi	IFUT-2
1				
2				
3				
...				
...				
N				

Izoh: yakuniy ro'yxat, ya'ni tanlanma to'plam, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar bo'yicha tuman va shaharlar kesimida va har bir o'rganiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha alohida tuziladi.